

## **Prezident ta'lim muassasalari agentligi faoliyati to'g'risidagi e'lon qilinishi lozim bo'lgan axborot materiallari ro'yxati**

1. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish borasidagi faoliyat.

2. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona shaklda muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish borasidagi faoliyat.

3. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quv-tarbiyaviy jarayoniga ilg'or ta'lim shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish borasidagi faoliyat.

4. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarida vatanparvarlik va vatanga muhabbat, bag'rikenglik tuyg'ularini, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish, ularning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada oshirish borasidagi faoliyat.

5. Xalqaro tashkilotlar va ekspertlarni jalb qilgan holda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar pedagogik kadrlarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish borasidagi faoliyat.

6. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash borasidagi faoliyat.

7. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ushbu muassasalardagi bino va inshootlardan foydalanish bo'yicha ishlarni monitoring qilish va muvofiqlashtirish borasidagi faoliyat.

8. Iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish borasidagi faoliyat.

9. Tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovasion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi faoliyat.

10. O'quvchilarni o'qitish va ular bilimni baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani respublika xalq ta'limi tizimiga tatbiq etish borasidagi faoliyat.

11. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish borasidagi faoliyat.

12. O'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash borasidagi faoliyat.

13. O'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatni, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarni shakllantirish borasidagi faoliyat.

14. O'quv dasturlarining uzluksizligini ta'minlash masalalarida xuddi shu yo'nalishdagi milliy va xorijiy umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy o'quv yurtlarida va ularning respublikamizdagi filiallarida o'qishini davom ettirish borasidagi faoliyat.

15. Nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtlarining ta'lim dasturlari asosida yuksak zamonaviy kasbiy bilim va malakaga ega bo'lgan, xalqaro miqyosda raqobatbardosh, istiqbolli kadrlarni tayyorlash borasidagi faoliyat.

16. O'quv-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda jahonning yetakchi universitetlarida joriy etilgan ta'lim texnologiyalari va usullari asosida tashkil etish borasidagi faoliyat.

17. Talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, bilimni amaliy tajribalar orqali mustahkamlashga, o'quv materiallarini samarali va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladigan har tomonlama qulay ta'lim muhitini shakllantirish borasidagi faoliyat.

18. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shuningdek, chet ellardagi nufuzli, tan olingan ilmiy markazlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, talabalarni ilmiy va innovasion faoliyatga keng jalb etish borasidagi faoliyat.

19. Ta'limning uzluksizligi va sifatini ta'minlash borasida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga metodik yordam ko'rsatish borasidagi faoliyat.